
VOLUME 10, OCTOBER 2026
ISSN: 3060-4958







The Lingua Spectrum



UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

MORE INFO:

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

Nazarova N.B.	The Literary Representation of Women's Accomplishments and Charm in Jane Austen's Novels	319
Karimova S.S.	Connotative meaning and pragmatic interpretation in literary texts	325
Radjabova G.G.	Corpus evidence and the limits of intuition in the study of collocation	331
Adinaev O.J.	Onomastic, lexico-semantic and linguocultural foundations for the study of celestial body names	339
Muxitdinova X.S.	Sociocultural and diachronic characteristics of personal names in the Uzbek language	349
Amanov V.B.	Universal values as an object of linguocultural research in Spanish and Uzbek	358
PEDAGOGY		**378**
Kambarova D.I.	The methodology of developing oral speech competence of future foreign language teachers in a digital educational environment	379
Allayarov T.Ya.	Developing communicative competence of public health college students using the standardized patient method	389
Silanteva E.F.	Preliminary training for ESP teachers for effective integrated teaching	396
Omonova E.B., Musoyeva A.B.	Digital revision portfolios for developing English writing skills in Uzbek secondary schools	411
Paluanova Kh.D.	The relationship between pragmalinguistic analysis and linguodidactic design in preservice English teacher education	419
Adamboyeva N.Q.	Age-related development of phonological skills in children aged 7–10 and their role in reading competence	427
Alimardonov L.A.	Theoretical foundations and conceptual model of spiritual technologies in ensuring the information security of young people	435
Pazilova N.M., Abdulhakimova R.A.	Didactic potential and limitations of generative artificial intelligence in teaching Russian	443
Kadirova N.M., Tahirova Sh.Sh.	Stages of working with texts in Russian language classes at higher education institutions	450
Pulatova F.U.	Pragmadidactic features of teaching implicature and indirect speech acts in English language education	456
Sulaymonova M.A.	AI-Assisted Feedback in EFL Writing: Implications for Writing Accuracy and Learner Autonomy	464
Khodjieva Z.M.	Theoretical and Methodological Foundations and Practical Stages of Criterion-Referenced Assessment in Foreign Language Teaching at Higher Education Institutions	489
Musayeva F.M.	The role of specialized vocabulary in developing the lexical competence of oil and gas students	498

Sociocultural and diachronic characteristics of personal names in the Uzbek language

Muxitdinova Xadicha Sabirovna
muxitdinovaxadichas@gmail.com
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *The article examines sociocultural characteristics of personal names in Uzbek and their relationship to historical periods of social development. Anthroponyms are considered linguistic units that reflect practices, religious beliefs, political processes, economic changes, and national values. Drawing on scholarship in onomastics and anthroponymy, the discussion identifies cultural, religious, political, ideological, socioeconomic, and historical factors shaping naming practices. Examples of Uzbek personal names illustrate connections with nature, occupations, customary practices, religious traditions, historical figures, and social transformations. Attention is paid to the periodisation of naming practices into pre-Islamic, Islamic, Soviet, and independence periods. The article also considers selected patterns in the formation of masculine and feminine names and changes in the use of surnames and patronymics. It argues that historical periodisation provides a framework for interpreting changes in personal naming alongside the cultural and social history of the Uzbek people. Names thus function as markers of collective memory and cultural affiliation.*

Keywords *Onomastics, anthroponyms, personal names, sociocultural factors, naming practices, religious and ideological factors, historical periodisation, Uzbek language*

O‘zbek tilida shaxs ismlarining ijtimoiy-madaniy va davriylik xususiyatlari

Muxitdinova Xadicha Sabirovna
muxitdinovaxadichas@gmail.com
Pedagogika fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Maqolada o‘zbek tilidagi shaxs ismlarining ijtimoiy-madaniy mazmuni va tarixiy davrlar bilan bog‘liq xususiyatlari tahlil qilinadi. Antroponimlar xalqning turmush tarzi, diniy qarashlari, siyosiy jarayonlari, iqtisodiy o‘zgarishlari va milliy qadriyatlarini aks ettiruvchi lisoniy birliklar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda onomastika va antroponimika sohasidagi ilmiy qarashlar umumlashtirilib, ism qo‘yish amaliyotiga ta‘sir etadigan milliy-madaniy, diniy, siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillar izohlanadi. O‘zbek ismlaridan keltirilgan misollar yordamida tabiat, mehnat, urf-odat, diniy e’tiqod, tarixiy shaxslar va ijtimoiy yangilanishlar bilan bog‘liq nomlash an’analari yoritiladi. Ismlarning shakllanishi va qo‘llanishi islomgacha bo‘lgan davr, islom davri, sovet davri hamda mustaqillik davri doirasida tavsiflanadi. Shuningdek, erkak va ayol ismlarining ayrim yasash shakllari hamda familiya va otaism tarkibidagi o‘zgarishlar qayd etiladi. Natijada shaxs ismlarini davriylik asosida o‘rganish til tarixini jamiyatning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bilan bog‘lab tushuntirish imkonini berishi asoslanadi. Ushbu yondashuv, ayniqsa zamonaviy o‘zbek tilshunosligida, antroponimlarning faqat nomlash vositasi emas, balki jamoaviy tarixiy xotira va madaniy mansublik ko‘rsatkichi ekanini ham ochib beradi.*

The Lingua Spectrum
Cogito, ergo sum

Jurnal Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan 2025-yil 4-yanvar kuni 366/5-sonli qaror bilan tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Kalit so'zlar *Onomastika, antroponimlar, shaxs ismlari, ijtimoiy-madaniy omillar, nomlash amaliyoti, diniy va mafkuraviy omillar, davriylashtirish, o'zbek tili*

Социокультурные особенности и историческая периодизация личных имён в узбекском языке

Мухитдинова Хадича Сабировна
muxitdinovaxadichas@gmail.com
Доктор педагогических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация *В статье рассматриваются социокультурные особенности личных имён в узбекском языке и их связь с историческими периодами развития общества. Антропонимы анализируются как языковые единицы, отражающие повседневный уклад, религиозные представления, политические процессы, экономические изменения и национальные ценности. На основе исследований по ономастике и антропонимике выделяются культурные, религиозные, политико-идеологические, социально-экономические и исторические факторы, влияющие на практику именования. На примерах узбекских имён показана связь имянаречения с природой, трудовой деятельностью, обычаями, религиозными традициями, историческими личностями и общественными преобразованиями. Особое внимание уделяется периодизации антропонимического материала: выделяются доисламский, исламский, советский периоды и период независимости. Рассматриваются также отдельные способы образования мужских и женских имён и изменения в оформлении фамилий и отчеств. Подчёркивается, что историческая периодизация позволяет объяснить изменения в системе личных имён во взаимосвязи с культурной и социальной историей народа. Предлагаемый подход раскрывает роль антропонимов не только как средств индивидуальной идентификации, но и как показателей коллективной исторической памяти, культурной принадлежности и преемственности традиций именования в различных социальных контекстах.*

Ключевые слова *Ономастика, антропонимы, личные имена, социокультурные факторы, практика именования, религиозные и идеологические факторы, историческая периодизация, узбекский язык*

Kirish

Til lug'at tarkibining muayyan qismini tashkil etuvchi ismlar nomshunoslik - onomastika (yunoncha "onoma" (ism) so'zidan kelib chiqqan) fanining o'rganish obyekti bo'lib (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2020; 127), ushbu qatlam antroponim, toponim, teonim, zoonim, kosmonim, astronim kabi o'nlab atoqli otlar guruhlarini o'z ichiga oladi. O'zbek onomastik birliklari ko'lami bo'yicha tadqiqot olib borgan Ya. Avlakulov onomastik birliklar tarkibiga 30 dan ortiq guruhlar kirishini qayd etib o'tgan (Avlakulov, 2012). Lingvistik tadqiqotlarda onimik so'z birikmalari (Superanskaya, 1973) deb ham nomlanuvchi ushbu guruhlar tarkibida insonlarning

nomlarini anglatuvchi antroponimlarning o‘rni alohida bo‘lib, ular har bir xalqning milliy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlar va turli etnik qatlamlarning dunyoqarashini aks ettirishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Antroponimika – odamlarning shaxsiy ismlarini, familiya, otasining ismi, taxallusi kabilarni o‘rganish bilan bir qatorda ushbu nominatsiyalarning qo‘yilish omillari, har bir xalqning turmush tarzidagi o‘zgarishlar, tarixiy davrlarning, diniy-mafkuraviy qarashlarning nomlanishga ta’siri kabi masalalarni ham o‘rganadi. Shuningdek, antroponimika ismlarning nutqdagi funksiyalari bilan bog‘liq: nomlarni identifikatsiyalash, ismlarni yoshga bog‘liq, ijtimoiy yoki oilaviy holatga ko‘ra yoxud vaqtincha (qisqa yoki uzoq) migratsiya, fuqarolikni o‘zgartirish, maxfiy jamiyatlarga kirish, boshqa dinni qabul qilish kabi holatlarda o‘zgartirish kabilar bilan ham shug‘ullanadi. Demak, shaxs ismlari har qanday tilda yoki uning nomlash san’atida shunchaki ajratilgan, alohida elementlar bo‘libgina qolmay, balki shaxsning qaysi avlodga mansubligini ifodalovchi maxsus fonematik belgilardan kelib chiqadigan o‘ziga xos kichik tuzilmalar – ism, otaism va familiyalar tizimlaridan iboratligi, struktural tuzilishi va uslubiy-funksional qo‘llanishi bilan o‘ziga xosliklarga egaligi bilan onimik birliklar ichida alohida o‘rin tutadi.

Ko‘rinadiki, shaxs ismlarini tadqiq qilishda ularni faqat lisoniy birliklar sifatidagina emas, balki jamiyatdagi o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiruvchi ijtimoiy-tarixiy lisoniy vosita sifatida ham o‘rganish kerak bo‘ladi. Zero, tilshunos olim A.B. Superanskaya ta’kidlaganidek, “Inson hayotida shaxsiy ismning o‘rni juda katta. Har bir insonni faqat ism bilan chaqirish mumkin, shuning uchun uning barcha yaxshi va yomon ishlari uning ismi tufayli ommaga e’lon qilinadi” (Superanskaya, 1990; 192). Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada o‘zbek tilidagi shaxs ismlarining ijtimoiy-madaniy va davriy jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

Muammoning o‘rganilishi

Lingvistikada shaxs ismlarini o‘rganish, ularning milliy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy-sotsial ahamiyati va uslubiy-funksional vazifalari bilan qiziqish va ularni o‘rganish A.V. Superanskaya (1973; 1990; 2007), V.A. Nikonov (1966), N.A. Baskakov (1970; 1981), S.V. Zinin (1989), D.I. Yermolovich (2005), O.A. Leonovich (2010), V.I. Bolotov (2002), I.S. Chursina (2001), va boshqalarning tadqiqotlari bilan boshlangan. Xususan, taniqli tarixchi olim V.A. Nikonovning onomastika sohasidagi ayniqsa antroponimlarni o‘rganish borasidagi faoliyati mazkur soha rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Aslida tarixchi bo‘lgan olim ismlarning sotsiolingvistik va tarixiy jihatlari, tarixiy voqealar va ijtimoiy o‘zgarishlarning shaxs nomlarida aks etishi, bunda madaniy o‘ziga xosliklarni yoritdi (Nikonov, 1966; 15). Turkolog olim N.A. Baskakov fikricha, “antroponimlar – bu shaxs nomlarining maxsus toifasi bo‘lib, ularning asosiy vazifasi insonni ijtimoiy subyekt sifatida aniqlashdir.” (Baskakov, 1981; 34). S.I. Zinin esa antroponimlarni “individual shaxslar uchun belgi sifatida ishlaydigan va etnik-madaniy ildizlarga ega bo‘lgan so‘zlar” (Zinin, 1989; 27). deb tavsiflab, ismlarning ramziy va kommunikativ vazifalariga alohida e’tibor qaratadi. D.I. Yermolovich antroponimlarni “shaxsiy, madaniy va lingvistik xilma-xillikni aks ettiruvchi onomastik tizimning ajralmas elementlari” deb hisoblagan bo‘lsa (Ermolovich, 2005; 72–78), O.A. Leonovich antroponimlarning kognitiv va kommunikativ rollarini ta’kidlab, ularni “turli xil ijtimoiy kontekstlarda individual identifikatsiya qilish uchun kognitiv vosita bo‘lib xizmat qiladigan nomlar” deya tavsiflaydi (Leonovich, 2010; 90–95). A.V. Superanskaya “antroponimlar madaniy, tarixiy va lingvistik omillar ta’sirida berilgan ismlar, otasining ismi va familiyalarini o‘z ichiga olgan odamlarni boshqalardan farqlash uchun ishlatiladigan maxsus so‘z” (Superanskaya, 1973; 42) deya ta’riflaydi.

Taniqli rus tilshunos olimi V.I.Bolotov ismlarning shaxsiy o‘ziga xoslikdagi o‘rni, ularning falsafiy asoslari va tarixiy va zamonaviy

kontekstdagi vazifalariga e'tibor qaratib, antroponimik tadqiqotlar sohasiga katta hissa qo'shdi (Bolotov, 2002). U antroponimlarni "jamiyatdagi shaxslarni farqlash uchun lingvistik mexanizm bo'lib xizmat qiladigan shaxsiy ismlar" deya tavsiflab, ismlarni zaruriy ismlarga (asosiy shaxsni ifodalovchi) va metaforik ismlarga (mavhum sifatlar yoki fazilatlarni ifodalovchi) ajratishni taklif qiladi. Shuningdek, u qonuniy va rasmiy kontekstlarda ishlatiladigan "rasmiy ismlar" va ijtimoiy yoki oilaviy sharoitlarda ishlatiladigan "norasmiy ismlar" o'rtasida farq mavjudligini ham qayd etib o'tadi (Bolotov, 2002; 30–45).

I.S. Chursina ismlarni sotsiolingvistik kontekstda tahlil qilish muhimligini ta'kidlab, ma'lum makon va zamonda shaxs ismlari quyidagilarni o'zida namoyon qilishini ta'kidlaydi:

- *ijtimoiy xoslik:* ismlar shaxslarning ijtimoiy sinfi, kasbini yoki mintaqaviy kelib chiqishini ko'rsatib bera oladi;
- *madaniy mansublik:* nomlash an'analari madaniy me'yorlar va amaliyotlarga chuqur singib ketgan;
- *tarixiy siljishlar:* ismlar ko'pincha muhim tarixiy voqealarni va inqiloblar yoki globallashuv davrlari kabi ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiradi (Chursina, 2001; 25–50).

O'zbek tilshunosligida onomastika va ismlar yo'nalishida E. Begmatovning tadqiqotlarini keltirib o'tish mumkin (Begmatov, 2006). Ushbu olim o'zining ko'plab ilmiy izlanishlari va yetishtirgan shogirdlari bilan o'zbek tilshunosligida onomastika sohasining jadal rivojlanishini ta'minlab berdi va o'zbek ismlarining maktabini yaratdi. Biroq hali o'zbek tilshunosligida shaxs ismlarining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, shaxsga ism qo'yish omillari, ismlarni davriylik nuqtai nazaridan guruhlash va tarixiy davr xususiyatlarining ismlarga ta'siri jihatlarini o'rganish masalalari to'liq yoritilganicha yo'q.

Muhokama va Tahlil

Til lug'at boyligining onomastik qatlamida muhim o'rin tutuvchi antroponimlar ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi madaniy belgilar bo'lib, ular madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Insonlarning qanday shariflanishi, ism, otaism va familiyalarning ifodalanish shakllari ham shaklan, ham mazmunan milliy kaloritdan kelib chiqadi. Jumladan, xitoy, koreys, yapon tillarida ismlarning ko'p qismliligi (masalan, *King Nan Ji*, *Xo Shi Min*), gruzin tilida *–dze* qismi bilan, arman tilida *–yan* qismi bilan tugallanishi (masalan, *Georgadze, Grigoryan*), ruscha shariflarda *-ovich, -evna* shakllarining qo'llanishi (masalan, *Semen Semenovich, Olga Sergeyevna*), arabcha ismlarda *ibn, abu* qismlarining mavjudligi (masalan, *Ibn Xattab, Abu Zubayda)* kabi omillar milliy madaniy xususiyatlarni yaqqol ko'rsatib turadi. Ushbu omillar madaniy assimilyatsiya jarayoni, boshqa madaniyatlar bilan aloqa (o'zaro nikoh, mustamlaka yoki migratsiya orqali) nomlash amaliyotiga ham ta'sir qiladi.

Ismlar xalq madaniyatining o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, ayni vaqtda uning o'zi milliy madaniyat, odatlar mahsulidir. Har bir xalqda bolaga ism qo'yish psixologik, ijtimoiy va madaniy omillarni hisobga oladigan lingvistik ijodiy faoliyat bo'lib, ular tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy omillar ta'sirida o'zgarib va rivojlanib boradi. Quyida ushbu omillarni ko'rib chiqamiz.

1. **Milliy-madaniy omillar**

Ma'lumki, har bir xalq o'zining yashash tarzi, urf-odatlari, qadriyatlaridan kelib chiqadigan milliy-madaniy etnik xususiyatlariga ega. Ular insonlarning o'zaro muloqot yuritishi, axloqiy me'yorlari, yashash tarzida namoyon bo'ladi va, turgan gapki, shu xalq tili leksikasining onomastik qatlamida ham aks etadi. Jumladan, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan o'zbek xalqida ismlar ko'proq tabiat, o'simliklar, fasllar, kunlar bilan bog'liq (masalan, *Gulbahor, Gulchehra, Oydin, Oftob, Jumagul, Payshanba, Bozorboy, Chori, Panja* kabi), dala mehnati bilan bog'liq (masalan, *Dehqonboy, O'roqboy, Tesha, Boltaboy k*abi), jonivorlar bilan bog'liq (masalan, *Bo'rivoy,*

Sherqo'zi, G'anisher, Sherzod, Tulpor, Qo'chqor) kabi ismlar ko'p uchraydi

Shuningdek, bayramlar nomlari bilan bog'liq (masalan, *Hayitgul, Hayitboy, Navro'zbek, Navro'za, Arofat* kabi), buyuk ajdodlar nomlari bilan bog'liq (masalan, *Temur, Bobur, Manguberdi, Amirxon* kabi) nomlanishlar mavjud.

Turli xalqlarda egizak farzandlarga qo'yiladigan ismlarda ham milliy-madaniy o'ziga xoslikni kuzatish mumkin. O'zbek xalqida, odatda, o'g'il egizak farzandlarga *Hasan* va *Husan,* qiz egizak farzandlarga *Fotima* va *Zuhra* ismlari qo'yilishi shart bo'lgan. Hatto egizak farzandlardan keyin tug'ilgan farzandlarga ham agar o'g'il bola bo'lsa, Tohir (Toir), keyingisiga *Zohir (Zoir*), qiz farzandlarga *Tohira, Zahro* ismlari qo'yilgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, keyingi yillarda islomiy aqidalarning kuchayishi oqibatida o'g'il egizaklarga *Muhammad – Mustafo*, qiz egizaklarga *Omina – Fotima* kabi ismlarni qo'yish ham keng tarqala boshladi. Shuningdek, o'g'il bolalarga *Muhammad* ismi bilan boshlanadigan, masalan, *Muhammadali, Muhammadsolih, Muhammadyusuf, Muhammadyunus, Muhammadsaid, Muhammadrizo, Muhammadamin* kabi ismlarni, qizlarga *Omina, Fotima, Soliha, Mastura, Mo'mina, Iymona, Oysha* kabi islom diniy aqidalari bilan bog'liq ismlarni qo'yish keng urfga kirmoqda.

Ko'rinadiki, jamiyatda yuz beradigan tarixiy o'zgarishlar madaniy o'zgarishlarga ham olib keladi va ular antroponimlarda ham namoyon bo'ladi. Jumladan, O'rta Osiyoga Islom dinining kirib kelishi tufayli turkiy xalqlarda arabcha nomlanishlar, ruslashtirish davridan keyin esa ruscha shariflanish, bolalarga zamonaviy ismlar qo'yish urfga kirganini ko'rish mumkin.

2. **Diniy omillar**

Yangi diniy tizimlarning qabul qilinishi ko'pincha nomlash tendensiyalarining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, islomlashtirish tufayli arab istilosidan keyin Markaziy Osiyoda *Abu Rayhon, Abu Ali ibn Sino, Muhammad Muso Al-Xorazmiy* kabi arabcha nomlanishlarning tarqalishi, fors yoki arab elementlarini o'z ichiga olgan o'zbek ismlarining paydo bo'lishi buning yaqqol dalilidir. Yoki xristianlashtirish oqibatida o'rta asrlarda Angliyada *Dikkattelred* kabi anglo-sakson ismlari, *Jon* va *Mary* kabi Injilda keltirilgan va avliyolar ismlari bilan almashtirildi. Ismlar diniy o'ziga xoslik vositasiga aylanadi, bu ma'lum bir e'tiqodga bog'liqligini bildiradi.

N.A. Baskakov islomlashtirishning O'rta Osiyo nomlariga ta'sirini o'rganib, islom dinining tarqalishi "arab antroponimlarining diniy va axloqiy fazilatlarni aks ettiruvchi turkiy til doirasiga sezilarli darajada qo'shilishiga" olib kelganini, arablar istilosidan keyin islomgacha bo'lgan turkiy ismlarning arabcha nomlarga almashtirilganligini qayd etadi. Uning fikricha, Muhammad, Ali va Oysha kabi taqvodorlik va axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan ismlar asta-sekin animistik va shamanistik an'analarni surib chiqargan. Olim ushbu ijtimoiy o'zgarishlar ta'sirida, ya'ni islomiy va forscha nomlash tizimlarining turkiy tillarga, xususan, o'zbeklar orasida integratsiyalashuvi tufayli nomlashning 3 bosqichi:

- islomgacha bo'lgan davr;
- islom davri;
- sovet davri yuzaga kelganini, sovet davrida nomlash tendensiyalari mafkuraviy o'zgarishlarni aks ettirganini va diniy nomlanishlarning keskin kamayib ketganini ta'kidlaydi (Baskakov, 1970; 112–115).

3. **Siyosiy va mafkuraviy omillar**

Antroponimlar siyosiy va mafkuraviy o'zgarishlarni ham aks ettiradi. Sovet davri g'oyaviy nomlanishlarining o'zbek ismlariga ta'sirini o'rgangan O.A. Leonovich fikricha, sovet rejimining dunyoviylashtirish siyosati asosida ushbu an'anaviy nomlar ommalashtirilgan va "sovet davridagi nomlash tendensiyalari davlatning mafkuraviy ustuvor yo'nalishlarini aks ettirgan, dunyoviy va inqilobiy qadriyatlarni diniy yoki an'anaviy qadriyatlardan ustun qo'ygan" (Leonovich, 1998; 100–110). Darhaqiqat, uning

monografiyasida keltirilgan *Vilena* (Vladimir Ilyich Lenin ismining qisqartmasi), *Mels* (Marks, Engels, Lenin ismlarining qisqartmasi), *Stalina, Oktyabrina* kabi nomlanishlar oktyabr inqilobi rahbarlarini shaxsiy identifikatsiyalash va sotsialistik qadriyatlarga moslashtirishga xizmat qilgan.

V.A. Nikonov ham antroponimlarda sovet davri mafkurasining aks etishiga e'tibor qaratib, ushbu nomlash amaliyotida antroponimlar ko'pincha an'anaviy nomlash tizimlari hisobiga siyosiy rahbarlar va yutuqlarni nishonlaydigan "targ'ibot vositalari"ga aylanganini qayd etadi va bu haqda quyidagi fikrni bildiradi: |Sovet rejimi diniy va aristokratik nomlarni dunyoviy nomlar bilan almashtirib, mafkuraviy nazoratni ta'minlash uchun ismlardan foydalangan" (Nikonov, 1966; 101–105).

Ulug' Vatan urushi g'alabasidan so'ng *G'olib, Muzaffar, Bahodir, Zafar, Shahodat, Shukrullo, Shuhrat, Qahramon, Botir, Jasur, Sadoqat, Yodgora, Muborak* kabi ismlarning, mustaqillikka erishilgach esa, o'z qadriyatlarimiz va milliy-madaniy qadriyatlarimiz ismlarda ham o'z aksini topa boshladi va *Ozodbek, Islombek, Ma'rifat, Adolat, Nurbek, Saodat* kabi ismlar ommalasha boshladi. O. A. Leonovich O'zbekistonda *Temur*, *Bobur* va *Ulug'bek* kabi an'anaviy nomlar qayta tiklangan mustaqillikdan keyingi davrni tahlil qilib, "1991- yildan keyin an'anaviy o'zbek ismlarining tiklanishi madaniy uyg'onish va sovet davridagi ta'sirlardan voz kechishni anglatadi" (Leonovich, 1998; 100–110). deya ta'kidlaydi. Ushbu siljish madaniy g'urur va milliy o'ziga xoslikni tiklash ramziga aylandi va sovet tuzumiga oid ismlarni muomaladan chiqarib yubordi.

Bu jarayonni boshqa tillar misolida ham kuzatish mumkin. Jumladan, rus tilida *Bratislava, Slava, Viktor, Viktoriya* kabi ismlar ommalashdi va ushbu nomlar milliy qahramonlik va optimizmni timsoli bo'lib qoldi. Devid Kristal ham jahon urushlari paytida inglizcha ismlarning qo'yilishi va tarqalishi xususiyatlarini o'rganib chiqib, aynan shu davrda Viktoriya va Hope kabi vatanparvarlik nomlarining ko'payganini ta'kidlaydi (Crystal, 1995; 180–185). Shuningdek, urushda halok bo'lgan askarlarni sharaflash yoki tinchlik harakatlarini xotirlash nomlari ham an'anaviy tus oldi. Ko'rinadiki, ismlarning qo'yilishi va ommalashishida muayyan jamiyatdagi siyosiy-mafkuraviy omillar ham ta'sir etadi.

4. **Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar omili**

Jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, sanoat va ishlab chiqarishdagi islohotlar nomlanishlarga ham ta'sir qiladi. 50-60-yillardagi sanoat islohoti o'zbek tilida *Po'lat, Temir, Sanoat, Norpo'lat* kabi ismlarning yuzaga kelishiga olib keldi. Patrick Xenks fikricha, "global migratsiya va ommaviy axborot vositalarining ta'siri Yevropa bo'lmagan madaniyatlarning elementlarini o'z ichiga olgan inglizcha nomlash amaliyotini o'zgartirdi" (Hanks, 2006; 87–94). N.A. Baskakov ham o'z vaqtida urbanizatsiya Abdurahmon ismini Rahmonga qisqartirish kabi an'anaviy nomlarning soddalashishiga olib kelganini, ushbu o'zgarishlar byurokratik samaradorlik va zamonaviy aloqa ehtiyojlarini aks ettirganini ta'kidlagan edi (Baskakov, 1970; 105–115). O'zbek tilida bu hodisa *Gulchehra* ismini *Guli, Oyniso* ismini *Niso, Roziyabonu* ismini *Bonu, Muhammad Rahim* ismini *Mamarayim, Muhammad Karim* ismini *Matkarim, Muhammad Ali* ismini *Mamadali* shakllarida qo'llanishida ham aks etganini kuzatish mumkin.

Antroponimlar ko'pincha ijtimoiy harakatlarning ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Qishloq an'analaridan shaha*rcha* nomlashga o'tish iqtisodiy va ijtimoiy moslashuvni aks ettirdi. inklyuzivlik va tenglikka nisbatan kengroq ijtimoiy tendensiyalarni aks ettiradi. Qayd etish kerakki, o'zbek xalqi hayotida ham ayniqsa mustaqillikdan so'ng qishloq va shahar o'rtasidagi tafovutni kamaytirish, qishloqlarning iqtisodiy rivojlanishiga shart-sharoit yaratish orqali ularni shaharlashtirishga bo'lgan harakatlar kuchaydi. Ushbu urbanizatsiya harakatlari ismlar, nomlanishlarga ham ta'sir qildi. Qishloq aholisida keng tarqalgan *Teshavoy, Jumavoy, Payshanba,*

Bozorboy, Rizvon, To'xtasin, To'xta, Tursun, Tursunoy, Turg'un, To'lagan, Tolib, Obid, Turdi, Turdigul, Habiba, Halima, Hanifa, Salima, Sojida, Mastura, Mavjuda, Mamlakat, Qumri, Umriniso, Hakima kabi ismlar o'rnini shaharlarda keng rasm bo'lgan Shahlo, Barno, Dono, Nargiza, Gulnoz, Nodira, Nigina, Yulduz, Jasur, Javlon, Jahongir, Alisher, Otabek, Durbek, Ulug'bek, Ozoda, Doniyor, Davron, Ziyoda, Lola, Dildora, Diyora, Ruxshona, Gulasal, Shahzod, kabi ismlar egallay boshladi. Bularning barchasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning nomlash tendensiyasiga kuchli ta'sirini ko'rsatadi.

5. **Tarixiy omillar**

Ma'lumki, tarixiy voqealar xalq hayotida chuqur izlar qoldiradi va xalqning turmush tarzini o'zgartirib yuboradigan omillardan biri hisoblanadi. Bu nomlash tendensiyalarida va antroponimlarda ham o'z ifodasini topadi. N.A. Baskakov arab istilolarining Markaziy Osiyo ismlariga ta'sirini o'rganish jarayonida, "Islom ta'limotiga bog'langan arabcha nomlanishlar *Bo'ri* kabi islomgacha bo'lgan turkiy ismlarni *Hasan* va *Fotima* kabi islomiy ismlar bilan almashtirdi" deya qayd etgan edi (Baskakov, 1970; 95–110). Darhaqiqat, islom dinining ta'sirini nafaqat o'rta asrlarda, balki diniy-mafkuraviy qarashlar kuchaygan hozirgi kunda ham ko'rish mumkin. Musulmonlik aqidalari ayniqsa go'daklarga ism qo'yishda yaqqol namoyon bo'layotganini va turkiy dunyoda XXI asrda islomiy ismlar birinchi o'rinni egallaganidan sezish mumkin. Bu o'rinda XIX asrdagi tarixiy o'zgarishlar va tufayli barcha Sovet Ittifoqi respublikalariga ruslashtirish natijasida ism-shariflarning qo'yilishida sodir bo'lgan*, -ov, -ova, -ev, -eva shaklidagi shariflanishlarni, keyinroq mustaqillikdan so'ng familiyalar tizimida yuz bergan jiddiy o'zgarishlarni, ya'ni -ov, -ova, -ev, -eva* shakllari o'rniga o'g'li, qizi tarzidagi nomlanishlar kirib kelganini ham qayd etib o'tish zarur.

Natija

Ko'rinadiki, shaxs ismlarining qo'yilishiga ta'sir etuvchi omillar talaygina. Bulardan tashqari gender omili ham mavjud, unga ko'ra shaxs ismlari erkak – ayol ismlariga ajratiladi. Biroq, ko'p hollarda gender jihatdan farqlanmay o'g'il bolaga ham, qiz bolaga ham bir xil qo'yiladigan ismlar ham bor. Bunday ismlar odatda, ismlarga qo'shiladigan *oy, jon, bek, -a* affiks va affiksoidlari bilan farqlanadi. Masalan, *Po'lat – Po'latoy, Baxtiyor – Baxtiya, Diyor – Diyora, Salim – Salima, Karim- Karima, Shahzod – Shahzoda, E'zoz- E'zoza, Umid- Umida, Aziz- Aziza, Muslimbek - Muslima k*abi.

O'zbek xalqi – serfarzand, bolajon xalq bo'lib, bir oilada o'rtacha 4-6 farzandlar tug'iladi va har bir bolaga davr bilan hamnafas ismlar qo'yishga harakat qilinadi. Shaxs ismlarida davriylik zamon bilan hamnafaslikni ifodalab, shu davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, shu davrda ustuvor bo'lgan madaniy urf-odatlar, siyosiy-mafkuraviy qarashlar, yuqorida qayd etilgan omillarning aksariyati ismlarda aks etadi. Shu bois shaxs ismlarining **qo'yilishini** davriylashtirish va o'zbek tilidagi ismlarni quyidagicha davriylik asosida o'rganish ismlar mazmun-mohiyatini yoritishda muhim o'rin turadi, deb o'ylaymiz:

1. **Islomgacha bo'lgan davrdagi ismlar.** Bu davrda tabiat va animistik e'tiqodlarni aks ettiruvchi *Bo'ri, Qaldirg'och, Qo'chqor, Burgut, Sanam, Oyxon* kabi ismlar keng tarqalgan;
2. **Islom davri ismlari.** Bu davrda *Muhammad, Abdulloh, Fotima, Oysha, Mastura* kabi arabcha va*, Gulshan, Santalat, Xonzodabegim, Zebuniso, Shahrizoda* kabi forscha ismlar; Bunda 1-guruh bevosita islom dini bilan bog'liq ismlar bo'lsa, 2-guruh Somoniylar va Qoraxoniylar saltanati davrida hukmron mavqeda turgan fors-tojik tili ta'sirida yuzaga kelgan *Zebo, Zarnigor, Zulayho, Nigor, Gulandom, Solihmahdum, Sultonali, Xudoyor, Musulmonqul, Xudoyqul, Qosim, Abdukarim, Abdurahim, Abdurahmon, Abdushukur, Rasul*
3. **Sovet davridagi nomlanishlar.** Bu davrda sovet tuzumi va mafkuraviy qarashlarni ifodalovchi *Ernest, Mels, Stalina, Oktyabrina* kabi ismlar; ruslashtirish ta'sirida yuzaga kelgan

Marat, Svetlana, Vadik, Muratik, Alik kabi ismlar; qo'riq yerlarni o'zlashtirish, mehnat bilan bog'liq Barno*, Ra'no; Saida, Nodira, Gulzoda, Botir, G'ayrat, Baxtiyor, Po'lat, O'tkir, Azamat, Alisher* kabi dunyoviy nomlanishlarni ifodalovchi ismlar; shuningdek, Ulug' Vatan urushi yillaridagi qahramonlik belgisini ifodalovchi *Jasur, Zafar, G'olib, Qahramon, Rustam, Sherbek, Sherali, Sadoqat* kabi ismlar.

4. **Mustaqillik davri nomlanishlari.** Bu davrda *Ozodbek, Ozoda Gulnoza, Shahnoza, Sevara, Saodat, Nodira, Jahongir, Jahongir, Shohjahon, Behruz, Behzod, Sherzod kabi* va ayni vaqtda *Muhammadali, Muhammadsaid, Saidumar, Nurmuhammad, Madina, Iymona, Omina, Shukrona* kabi diniy-mafkuraviy ismlar yuzaga kelgan.

Tadqiqotchi Sh. Raximov ta'kidlaganidek, mustaqillik diniy erkinlikning tiklanishiga, o'zbek tilida islom fazilatlari, payg'ambarlar va Qur'on zikrlarini aks ettiruvchi *Muhammad, Yusuf, Oysha, Fotima, Ali, Xadichabegim, Husayn* kabi ismlar qaytib keldi. An'anaviy o'zbek ismlari tarkibiga islomiy ismlarni qo'shib, *Alibek, Muhammadali, Muhammadyusuf, Muhammadumar, Muhammadamin, Oyshabegim, Bibioysha kabi* ko'plab gibrid nomlar yaratildi (Raximov, 2005; 122–124). Ko'rinadiki, ismlarni davriylik asosida o'rganish tarixiy omillarni ham, ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'liq va siyosiy-mafkuraviy qarashlarni ham qamrab oladi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, shaxs ismlarini o'rganishda eng samarali yondashuv bir nechta o'lchovlarni birlashtirgan holda ismlarni ham lingvistik, ham madaniy jihatdan tadqiq qilish bo'lib, ushbu ko'p o'lchovlilik antroponimlarning tarixini saqlash, o'ziga xosligini aniqlash va ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarga moslashishdagi rolini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Har bir ism shaxsning kelib chiqishi, nasl-nasabi, jinsi va ba'zan kasbiy va boshqa madaniy belgilari haqida, shu shaxs mansub etnos qadriyatlari, ijtimoiy-tarixiy xususiyatlari haqida muhim ma'lumotlar beruvchi lisoniy birlikdir va ular nafaqat tilshunoslik fani, balki tarix, sotsiologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlar uchun ham boy manba hisoblanadi. Ismlar xalq madaniyatining o'ziga xos yo'nalishi bo'lib, ayni vaqtda uning o'zi milliy madaniyat, odatlar mahsulidir. Antroponimlar barcha atoqli otlar kabi ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi madaniy belgilar bo'lib, ular madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Har bir xalqda bolaga ism qo'yish psixologik, ijtimoiy va madaniy aspektlarni hisobga oladigan lingvistik ijodiy faoliyat bo'lib, ular tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, diniy va madaniy omillar ta'sirida o'zgarib va rivojlanib boradi. Shu jihatdan har bir xalqning nomlash amaliyotini davriylik asosida o'rganish mazkur etnosning turmush tarzidagi madaniy belgilari va ijtimoiy o'zgarishlarni, boshidan o'tkazgan tarixiy va siyosiy-mafkuraviy voqeliklarni ham anglashga yordam beradi.

References:

1. Avlakulov, Ya. I. (2012). *O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi*. Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati.
2. Baskakov, N. A. (1970). *Антропонимика тюркских народов*. Наука.
3. Baskakov, N. A. (1981). *Введение в науку о языковых именах*. Высшая школа.
4. Begmatov, E. (2006). *O'zbek onomastikasining izohli lug'ati*.
5. Bolotov, V. I. (2002). *Имя и личность*. Флинта.
6. Chursina, I. S. (2001). *Социолингвистический аспект антропонимики*. Наука.

7. Crystal, D. (1995). *The Cambridge encyclopedia of the English language*. Cambridge University Press.
8. Ermolovich, D. I. (2005). *Ономастика: теория и практика*. URSS.
9. Hanks, P. (2006). *The Oxford dictionary of first names*. Oxford University Press.
10. Leonovich, O. A. (1998). *Антропонимия и национальная идентичность*. СПбГУ.
11. Leonovich, O. A. (2010). *Антропонимы в когнитивной лингвистике*. Языки славянской культуры.
12. Nikonov, V. A. (1966). *Имя и общество*. Мысль.
13. *O'zbek tilining izohli lug'ati* (3-jild). (2020). O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
14. Raximov, Sh. (2005). *O'zbekistonda zamonaviy nom qo'yish amaliyoti*. O'zbekiston Fanlar akademiyasi.
15. Superanskaya, A. V. (1973). *Общая теория имени собственного*. Наука.
16. Superanskaya, A. V. (1990). *Имя через века и страны*. Наука.
17. Superanskaya, A. V., Staltmane, V. E., Podolskaya, N. V., & Sultanov, A. Kh. (2007). *Теория и методика ономастических исследований*. ЛКИ.
18. Zinin, S. V. (1989). *Система антропонимов в русском языке*. СГУ.